

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETINING QARSHI  
IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**HAYITOVA MAHBUBA SAFAROVNA**

**IRRIGATSIYA EROZIYASIGA MOYIL TUPROQLAR SHAROITIDA  
G‘O‘ZANING SUG‘ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

**06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по техническим  
наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Hayitova Mahbuba Safarovna**

Irrigatsiya eroziyasiga moyil tuproqlar sharoitida g'ozaning sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida) ..... 3

**Хайитова Махбуба Сафаровна**

Совершенствование элементов техники полива хлопчатника в условиях почв, склонных ирригационной эрозии (на примере Ташкентской области) ..... 21

**Khayitova Makhbuba Safarovna**

Improving the elements of cotton irrigation technology in soil conditions prone to irrigation erosion (using the example of the Tashkent region) ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'xati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETINING QARSHI  
IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**HAYITOVA MAHBUBA SAFAROVNA**

**IRRIGATSIYA EROZIYASIGA MOYIL TUPROQLAR SHAROITIDA  
G‘O‘ZANING SUG‘ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

**06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/T4794 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.qmii.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matyakubov Baxtiyar Shamuratovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Axmedjonov Dilmurod G'ulomovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Raxmonov Raxmatilla Umaraliyevich**  
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh. Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: +99875 221-09-23; fax: +998975 224-1395. E-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz))

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh. Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: +99875 221-09-23; fax: +998975 224-1395.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.S.Eshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**A.N.Xazratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
kotibi, t.f.f.d., dotsent

**R.T.Xo'jaqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda irrigatsiya eroziyasi tufayli 1,1 mln. gektar yoki 56 foiz sug'oriladigan maydonlar, jumladan Avstraliyada 81%, Markaziy Amerikada 74%, Shimoliy Amerikada 63%, Janubiy Amerikada 50,6%, Yevropada 52,3%, Osiyoda 59,0%, Afrikada 46,0 % hamda Respublika bo'yicha 722 ming gektar maydon turli darajada zarar ko'rmoqda<sup>1</sup>. Ma'lum bo'lishiga qaraganda irrigatsiya eroziyasi yer yuzining sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadigan barcha davlatlar sug'oriladigan maydonlarida mavjud bo'lib, tuproq unumdorligi hamda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda irrigatsiya eroziyasi oqibatida qishloq xo'jaligida har yili 75 mlrd. tonna tuproqning ustki hosildor qatlam yuvilishiga yo'l qo'yilmoqda<sup>2</sup>. Tuproq yuvilishining oldini olishda sug'orish suvidan samarali foydalanish hamda tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish evaziga paxta hosili gektariga 8-10 sentnergacha oshishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda irrigatsiya eroziyasiga uchragan maydonlar, asosan Toshkent, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, qisman Farg'ona va Namangan viloyatlarida uchraydi. Irrigatsiya eroziyasi o'simlikning oziqlanish tartibi va tuproqning meliorativ holatining yomonlashishi, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va yetishtiriladigan mahsulot sifatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Paxtachilik sohasida tuproq unumdorligini oshirish, irrigatsiya eroziyasi jarayonlarini kamaytirish va sug'orish suvlaridan oqilona va samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa sug'oriladigan maydonlarning nishabligi katta va yer relyefi notekis bo'lgan holatlarda tuproq unumdor qatlamining yuvilishini kamaytirishga katta ahamiyat berish kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida farmonda sug'oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish bo'yicha muhim maqsad belgilab berilgan (81-maqsad). Shundan kelib chiqqan xolda ekinlarini sug'orish orqali bo'ladigan eroziyani kamaytirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash" qarorini amalga oshirish dasturi hamda 2024-yil 2-fevraldagi 903-son "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish" to'g'risidagi qonun hujjati, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyundagi 422-son "Sug'oriladigan yerlarning shamol eroziyasiga hamda suv xo'jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish tartibi to'g'risida"gi hamda 2023-yil 2-fevraldagi 50-son "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish, baholash va hisobot shakllarini

<sup>1</sup>Haqberdiyev O.E., Sodiqova G.S. "O'zbekistonning yer-suv resurslari: muammo va yechimlari" // Toshkent, 2017 yil. 21-bet.

<sup>2</sup><http://anrcatalog.ucdavis.edu> (Bjorneberg, D.L., R.E.Sojka, J.K.Aase. "Pre-wetting effect on furrow irrigation erosion a field study" // Transactions of the ASAE 45.3 (2002). - 717 p.)

ishlab chiqish hamda ularning natijalarini chop etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yor-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Irrigatsiya eroziyasining yuzaga kelishi, uning tarqalishi, kelib chiqish sabablari va uning salbiy oqibatlarini o'rganish hamda bartaraf qilish usullari, g'ozani sug'orish texnikasi elementlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiiq qilish bo'yicha bir qator mahalliy va chet el olimlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan Gussak V.B., Pankov M.A., Antoshina Z.N., Kocherga F.K., Doshanov M.B., Murodova R.G., Mirzajonov K.M., Maxsudov X.M., Gafurova L.A., Xonazarov A.A., Nurmatov Sh.N., Abdalova G.N., Suchkov S.P., Matyunin N.F., Hamdamov X.X., Elyubaev S.M., Nigmatov A., Jo'raev B., Usmonov K., Kostyakov A.N., Laktaev N.T., Kambarov B.F., Xorst M.G., Abirov A.A., Krivovyaz C.M., Bezborodov G.A., Hamidov M.X., Maylibaev S., Haqberdiev O.E., Sodiqova G.S., Li V.N., Raximov A.X., Raxmanov R.U., Avliyakulov M., Matyakubov B.Sh., Axmedov Sh.E., Mo'minov K.M., Bakirov M., Zaslavskiy M.N., Armand D.A., Kuznesov M.S., Gurbanov E.A., Zerbaliyev A.M., Akperova U.Z., Bennet X.X., Glazunov G.P., Sheglov D.I., Gorbunova N.S., Zings Wolter M., Bjorneberg D.L., Sojka R.E., Aase J.K., Strelkoff T.S., R.Fernandez-Gomez, Mateos L., Giraldez J.V. va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari hamda izlanishlar olib borilgan.

Lekin egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalangan holda g'oz maydonlarining egat uzunligiga ko'ra tuproq hisobiy qatlamini bir xilda namlashga erishish hamda tuproqning unumdor yuza qismini yuvilishdan saqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Tadqiqotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga kirgan 6.7-sonli "Tog' oldi tuproqlarida eroziya jarayonlarini baholashda GAT texnologiyalarning ahamiyatini o'rganish" ("Turli agroekologik sharoitlarda tuproqni degradatsiya (shamol va irrigatsiya eroziyasi) dan himoya qilish, tuproq unumdorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirish" dasturi) hamda "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasining "Suv tejamkor sug'orish usullari va texnologiyalarni takomillashtirish" mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Toshkent viloyatining irrigatsiya eroziyasiga moyil tuproqlari sharoitida egat tubini zichlash qurilmasini qo'llash orqali g'ozani egatlab sug'orishda sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

irrigatsiya eroziyasiga uchragan tajriba dalasi maydonlarini aniqlash va hududning tabiiy-iqlim, tuproq, gidrogeologik va meliorativ sharoitlarini o'rganish;

g'ozani sug'orishda egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasi (texnologiya) ni qo'llashda yer ustidan sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish, uning suv mahsuldorligiga hamda tuproq hisobiy qatlamining egat uzunligi bo'yicha bir xilda namlanishiga va tuproqning yuvilishiga ta'sirini o'rganish;

tajriba maydonlarida qo'llanilgan texnologiyaning g'ozaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini va uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

g'ozaning ilmiy asoslangan sug'orish tartibini Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) uslubiyatiga muvofiq aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Toshkent viloyatining o'rta mexanik tarkibli tipik bo'z tuproqlari, egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasi, irrigatsion eroziya, g'ozaning o'rta tolali «Sulton» navi, sug'orish texnikasi elementlari hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** bo'lib, g'ozani egatlab sug'orish texnologiyasi, egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasi, tuproqning erozion jarayonlarini kamaytirish, umumiy suv iste'moli hisoblanadi.

**Tadqiqot uslublari.** Dala sharoitida tadqiqotlarni o'tkazishda laboratoriyada tuproq tahlillari, g'ozani o'sishi va rivojlanishi bo'yicha fenologik kuzatuvlar, o'lchov va tahlillar "Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari" ilmiy-tadqiqot instituti (PSUYEAITI) va "Irrigatsiya va suv muammolari" ilmiy-tadqiqot instituti (ISMITI) da qabul qilingan "Dala tajribalarni o'tkazish uslublari", "Методы полевых и вегетационных опытов с хлопчатником" uslubiy qo'llanmalaridan foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar bo'yicha olingan natijalarning aniqligi va ishonchligini aniqlashda umum qabul qilingan B.A.Dospexovning ko'p omilli uslubi orqali matematik-statistik tahlil qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

g'ozaning "Sulton" navini sug'orishda egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanib, egat uzunligi bo'yicha hisobiy qatlamning bir xilda namlanish koeffitsienti-tipik bo'z o'rta qumoq tuproqlar sharoitini inobatga olib, yuqori bo'lishi asoslangan;

egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalangan holda, tipik bo'z o'rta qumoq tuproqlar sharoitini inobatga olib, sug'orish suvining mahsuldorligi 25 foizgacha yuqori bo'lishi asoslangan;

g'ozaning suvga bo'lgan talabini inobatga olib, sug'orishni boshqarish usuli, yer ustidan sug'orish texnikasi va texnologiyasi elementlari takomillashtirilgan;

texnologiyaning irrigatsiya eroziyasiga ta'sirini inobatga olib, BMTning Butunjahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi dasturi (FAO) uslubiyatiga muvofiq,

sugʻorish tartibi ishlab chiqilgan hamda sugʻorish texnikasi elementlari mazkur sharoitga asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatining qadimdan sugʻorib kelingan tuproqlari sharoitida gʻoʻzani sugʻorishda egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanish orqali egat uzunligi boʻyicha bir xilda hisobiy qatlamni namlashga erishilgan, suvning mahsuldorligi 15; 25 foizga yuqori boʻlishi hamda tuproq yuvilishining 15; 35 foizga kamayishi aniqlangan;

gʻoʻzani sugʻorishda egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanilgan holda sugʻorilganda, egat uzunligi boʻyicha hisobiy qatlam namlanishi bir xillikka erishilgan hamda gʻoʻzaning oʻsishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan. Nazorat variantiga nisbatan 3,8-6,0 s/ga yuqori paxta hosili olingan, sof foyda 12536 ming soʻm/ga ni, rentabellik darajasi 33,1 foizni tashkil etgan;

gʻoʻza yetishtirishda yer ustidan sugʻorish usuli (nazorat varianti) da 1-tajriba dalasida olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, tadqiqot yillari boʻyicha oʻrtacha 3949,7 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 28,4 s/ga (1,0 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 0,720 kg) paxta hosili olingan;

gʻoʻzani sugʻorish oldi egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasi qoʻllanilgan 1-tajriba dalasining 2-variantida egat tubi zichlanib sugʻorilganda 3743 m<sup>3</sup>/ga (mavsumiy sugʻorish meʼyori) suv sarflanib, 33,7 s/ga (1 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 0,90 kg) paxta hosili olingan. Egat uzunligi boʻyicha namlanish koeffitsienti 0,79-0,81 ga teng boʻlgan;

2-tajriba dalasida gʻoʻzani anʼanaviy usulda sugʻorilganda mavsumiy sugʻorish meʼyori 4369,7 m<sup>3</sup>/ga ga teng boʻlib, 26,2 s/ga (1,0 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 0,60 kg) paxta hosili olingan boʻlsa, gʻoʻzani sugʻorish oldi egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasi orqali (2-variant) egat tubi zichlanib sugʻorilganda 4264,8 m<sup>3</sup>/ga miqdorda suv sarflangan hamda 32,2 s/ga (1,0 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 0,76 kg) paxta hosili olingan. Egat uzunligi boʻyicha namlanish koeffitsienti 0,76-0,78 ga teng boʻlgan;

3-tajriba dalasida gʻoʻzani anʼanaviy usulda sugʻorilganda gektariga 3946,3 m<sup>3</sup> suv sarflanib, 39,3 s/ga (1 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 1,0 kg) paxta hosili olingan boʻlsa, gʻoʻzani sugʻorish oldi egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasi orqali (2-variant) egat tubi zichlanib sugʻorilganda 3576,9 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 43,1 s/ga (1 m<sup>3</sup> suvning mahsuldorligi 1,21 kg) paxta hosili olingan. Egat uzunligi boʻyicha namlanish koeffitsienti 0,80-0,85 ga teng boʻlgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala tadqiqot natijalarining variatsion-statistik ishlovdan oʻtkazilganligi, matematik tahlil qilinganligi hamda olingan nazariy natijalarning amaliy tomondan tasdiqlanganligi, tajriba natijalarining mahalliy va chet el ilmiy tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, toʻplangan maʼlumotlar mutaxassislar tomonidan tasdiqlanib baholangani va tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi

hamda xorijiy ilmiy jurnallar va Respublika ilmiy nashrlarida chop etilganligi tajribalardan olingan natijalarining ishonchliligini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, tipik boʻz tuproqlar sharoitida, gʻoʻzani sugʻorishda egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanishning samaradorligi aniqlanib, sugʻorish suvini iqtisod qilish hamda tuproq zarrachalarining yuvilish jarayonlarini kamaytirish hisobiga gʻoʻzaning oʻsishi, rivojlanishi yaxshilanib, yuqori paxta hosili olishning nazariy va amaliy jihatlari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tipik boʻz tuproqlar sharoitida egat uzunligi boʻyicha bir xilda namlanishi, egat oxiriga suvning etib borish vaqtining qisqarishi, sugʻorish suvi mahsuldorligining oshishi va tuproq unumdor qatlami yuvilishining kamayishi, paxta hosilining yuqori boʻlishi hamda sugʻorishda mehnat sarfining kamayishi natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasini qoʻllash samaradorligini aniqlash boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

egat uzunligi boʻyicha oʻzgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanilgan holda tuproq yuvilishini kamaytirish va sugʻorish texnikasi elementlarini takomillashtirish boʻyicha xulosalar va tavsiya berilgan. Gʻoʻzani sugʻorishda oʻrta mexanik tarkibli va hududning nishabligini hisobga olgan holda sugʻorish texnikasi elementlari takomillashtirilgan, yaʼni nishablik 0,001 boʻlganda: egatlar orasidagi masofa 60 sm, egat uzunligi 50 m. va egatga beriladigan suv sarfi 0,25 l/s; nishablik 0,030 boʻlganda mos ravishda: 60 sm; 50 m; 0,1 l/s; hamda nishablik 0,002 boʻlganda: 60 sm; 50 m; 0,2 l/s tavsiya qilingan. Texnologiyani qoʻllash natijasida tuproq yuvilishi 4,5-6,5 t/ga kam boʻlgan, jumladan, nishabligi 0,001 boʻlgan hududda gʻoʻzani anʼanaviy usul bilan sugʻorilganda 20,1 t/ga tuproq yuvilgan boʻlsa, egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanilganda 13,6 tonna tuproq yuvilgan. Natijada 6,5 t/ga kam tuproq yuvilganligi aniqlangan. Nishabligi 0,030 boʻlgan hududda gʻoʻzani anʼanaviy usul bilan sugʻorilganda 29,4 t/ga tuproq yuvilgan boʻlsa, egat tubi oʻzgaruvchan zichlanganda 24,9 tonna tuproq yuvilgan. Taqqosiy natijalarga koʻra 4,5 t/ga kam tuproq yuvilgan.

Nishabligi 0,002 boʻlgan hamda yuqoridan tuproq yuvilib tushgan hududda gʻoʻzani anʼanaviy usul bilan sugʻorilganda 18,7 t/ga tuproq yuvilganligi kuzatildi. Texnologiya qoʻllanilishi natijasida 14,1 t/ga tuproq yuvilganligi aniqlanib, 4,6 t/ga kam tuproq yuvilgan. Egat uzunligi boʻyicha hisobiy qatlamning namlanish koeffitsienti 0,76-0,85, vegetatsiya davrida tuproqning yuvilishi 15-35 % ga kamaygan hamda oʻrtacha 400 m<sup>3</sup>/ga suv iqtisod qilingan. Paxtadan olingan hosildorlik 32,2 - 43,1 s/ga, anʼanaviy sugʻorish usuliga nisbatan qoʻshimcha 3,8-6,0 s/ga atrofida paxta hosili olingan boʻlib, rentabellik darajasi 25-35 foizni tashkil qilgan. Egat tubini oʻzgaruvchan zichlash qurilmasini qoʻllash “Boʻz-suv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi suv etkazib beradigan suv isteʼmolchilarining hamda Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani “TCT Agro Cluster” MChJ ning gʻoʻza etishtiriladigan reliefi notekis maydonida joriy etilgan (Suv xoʻjaligi vazirligining

2024-yil 12-iyundagi 03/17-2114-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini paxtachilikga ixtisoslashgan klaster va fermer xo'jaliklarida irrigatsiya eroziyasiga moyil bo'lgan tuproqlar sharoitida suvdan samarali foydalanishda, tuproq unumdorligini saqlashda hamda paxtadan yuqori hosil olishda sug'orish texnikasi elementlarini to'g'ri belgilashda keng ko'lamda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.**

Dala va laboratoriya sharoitida olib borilgan tajribalar har yili Paxta seleksiyasi urug'chiligi etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (PSUEAITI) va "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ("TIQXMMI" MTU) tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanib, hisobotlar universitetning Ilmiy va Uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda jami 6 marta ma'ruza qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta hammualliflik huquqi ob'ektlarini deponentlash to'g'risidagi "Intelektual mulk markazi" ning guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti, predmeti, uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, uning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida jahonda va O'zbekistonda irrigatsiya eroziyasiga uchragan maydonlarda g'ozani sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar sharhi keltirilgan hamda shu bilan bir qatorda ilmiy manbalardan olingan xulosalar va ishlab chiqarishga berilgan tavsiyalar tahlil qilinib, tadqiqotlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar shakllantirilgan. Shu bilan bir qatorda notekis hamda nishabligi yuqori bo'lgan maydonlarda irrigatsiya eroziyasini kamaytirish va mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi keltirib o'tilgan.

Sug'orish natijasida tuproqni ustki hosildor qatlamning yuvilishi hamda mahsuldorlikning kamayishiga sabab bo'lishi va irrigatsiya eroziyasiga uchragan tuproqlarda yer ustidan sug'orish texnikasi elementlarini qabul qilish to'g'risida bir qator olimlar, jumladan Abduraxmonova M., Xodjimuxamedova Sh., Ramazonov O.R., Xalimirzaeva M., Nasonov V., To'raev A., Gafurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu., Mirzajonov Q.M., Nurmatov Sh.N., Ismoilov I.I., Golubinskiy G.V., Tolibov G.X, Polyakov Yu.P. va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bajarilganligi o'rganilgan va tahlil qilingan.

G'o'zani yer ustidan egatlab sug'orishning to'g'ri va sifatli tashkil qilinishi natijasida, egat uzunligi bo'yicha egat boshidan oxirigacha hisobiy qatlamning bir tekis namlanishini ta'minlash maqsadida mazkur ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi keltirib o'tilgan. Suvning egat uzunligi bo'yicha bir xilda g'o'zani hisobiy qatlamini namlanishini ta'minlash maqsadida egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishda ya'ni yer ustidan egatlab sug'orishni tashkil qilishda Laktaev N.T. va Qambarov B.F. tomonidan sug'orish texnikasi elementlari aniqlashda grafoanalitik usuldan foydalanilgan.

Grafoanalitik usuldan foydalanilgan holda yer ustidan sug'orish usulining maqbul sug'orish texnikasi elementlari ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin. Ammo, Toshkent viloyati sharoitida tanlab olingan 3 ta tajriba dalasida ham egat uzunligi 50 metrdan hamda sug'oriladigan maydon nishabligi xar xil bo'lganligini inobatga olgan holda sug'orish texnikasi elementlari aniqlandi.

Tajriba dalasining uzunligi hamda nishabliklari geodezik asboblardan foydalanilgan holda aniqlandi va sxematik joylashuvi tayyorlandi. Shu bilan bir qatorda tajriba dalasining joylashuvi kosmik tasvir tomondan tekshirib ko'rildi. Quyida egat tubini zichlaydigan qurilma to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan.

**Egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasi.** Kultivator maydonning tayyorlangan yuzasiga nisbatan egat tayyorlaydi (egat oladi), natijada egatning bo'ylama profili va uning nishabi odatda sug'orma suvning to'siqsiz va bir maromda oqishini ta'minlashi kerak, ammo sug'orishda ekinning ildiz tarqaladigan hisobiy qatlamini hamda egat uzunligi bo'ylab bir tekisda namlanishini ta'minlay olmaydi.

Dala sharoitida qo'llanilgan qurilma quyidagi tartibda ishlaydi, ya'ni egat boshida maksimal qiymatda va egat oxirida nol qiymatgacha egat tubi kesimini tekis o'zgaruvchan zichlash imkonini beradi.

Mazkur texnologiya avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bo'lib, tajriba dalasida tuproq eroziyasini kamaytirish hamda egatni o'zgaruvchan zichlash orqali egat olib sug'oriladigan maydonlarda g'o'zaga vegetatsiya davrida beriladigan mavsumiy sug'orish me'yoringing tejalishiga, egat uzunligi bo'yicha g'o'zaning hisobiy qatlamini bir tekis namlashni ta'minlash orqali paxtadan yuqori hosil olishga erishish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunda suv resurslaridan oqilona foydalanish zaruratidan kelib chiqqan holda zamonaviy resurstejamkor texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy izlanishlarni olib borish katta ahamiyat kasb qiladi. Olimlar tomonidan olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlarning tahlili hamda ishlab chiqarishga berib o'tilgan

tavsiyalarga asosan mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq, tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'ozani yer ustidan egat olib sug'orishda tuproqning yuvilishi asosan sug'oriladigan maydonning relyefi notekis bo'lgan hududlarda ro'y berishi hamda tog'li hududlarda ko'proq kuzatilishi aniqlangan. Bu hisobiy qatlamning yuvilishini oldini olish uchun yer ustidan sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish kerakligidan dalolatdir. Tuproq yuvilishiga qarshi kurash (suv tejankor sug'orish texnologiyalarni qo'llash, egat tubini o'zgaruvchan zichlash qurilmasidan foydalanish va boshqalar) choralarni qo'llash natijasida tuproqning unumdorligini oshirish hamda hisobiy qatlamni egat uzunligi bo'yicha bir xilda namlashga erishish orqali paxtadan yuqori hosil olinadi. Mazkur tavsiya qilinayotgan texnologiyani qo'llash orqali irrigatsiya eroziyasini oldini olish, tuproq unumdorligini saqlaydigan hamda paxta hosil ko'rsatkichini oshirish imkoniyati bo'yicha dala tadqiqotlarini olib borish, xulosa va ishlab chiqarishga tavsiya ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Shundan kelib chiqqan holda dala sharoitida egat tubini o'zgaruvchan zichlash orqali irrigatsiya eroziyasiga moyil tuproqlar sharoitida g'ozaning sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borish kerakligi aniqlandi.

**Dissertatsiyaning "Toshkent viloyatining tabiiy va xo'jalik sharoitlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida Toshkent viloyatning geografik joylashgan o'rni va chegaralari, iqlim sharoitlari geologik va gidrogeologik sharoitlari, tuproq-meliorativ sharoitlari, viloyatining yer fondi va asosiy suv manbalari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Toshkent viloyatining umumiy yer maydoni 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami 1522,7 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 399,1 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 26,2 foizini tashkil qiladi. Qibray tumani bo'yicha 19,1 ming gektar sug'oriladigan maydon bo'lib, shundan 200 gektari nasoslar yordamida suv ta'minoti amalga oshiriladi. Toshkent viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti hamda tuproq-meliorativ va geologik sharoitidan kelib chiqib, dala tajribalarini Toshkent viloyatining qadimdan sug'orilib kelinayotgan, irrigatsiya eroziyasiga moyil, mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq tipik bo'z tuproqlar sharoitida o'tkazishga qaror qilindi.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot uslublari va obyekti"** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba olib borish uslublari va obyekti, tajriba dalalarida olib borilgan agrotexnik tadbirlar hamda g'ozaning navining biologik tavsifi, tajriba dalasi tuproqning morfologik tavsifi va mexanik tarkibi, tuproqning agrokimyoviy xossalari, suv-fizik xossalari, hajm massasi, tuproqning chegaraviy dala nam sig'imi, suv o'tkazuvchanligi bayon qilingan.

Tadqiqotlarni olib borishda, tajriba dalasi sifatida PSUYEAITning "Oq-qovoq" tajriba dalasining tipik bo'z tuproqli maydoni tanlab olingan hamda va dala tajribalari 2021-2023-yillarda olib borildi. G'ozani sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish bo'yicha dala tajribalari 1-jadvalda keltirib o'tilgan tajriba tizimiga asosan olib amalga oshirildi.

Tajriba dalalaridagi egat uzunligi  $L_e = 50$  m, egatlar orasidagi masofa, o'rta mexanik tarkibli tuproq bo'lganligi sababli  $a = 0,6$  m qilib olindi. Egat qatorlari

umumiy soni 8 ta, shundan 4 ta qator hisob-kitob olib borish qatorlari, qolgani ikki tomonidan: 2 ta dan egatlar himoya qatorlari hisobida qabul qilindi.

## 1-jadval

### Tajriba tizimi

Variantlar	Sug'orish texnologiyasi	Sug'orish texnikasi elementlari			Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan, %
		Egatga beriladigan suv sarfi, l/s	Egatlar orasidagi masofa, m	Egat uzunligi, m	
1-tajriba dalasi (i=0,001)					
1 (nazorat)	Yer ustidan		0,6	50	70-75-60
2	Egat tubini	0,25			
3	zichlash	0,30			
2-tajriba dalasi (i=0,030)					
1 (nazorat)	Yer ustidan		0,6	50	70-75-60
2	Egat tubini	0,10			
3	zichlash	0,15			
3-tajriba dalasi (i=0,002)					
1 (nazorat)	Yer ustidan		0,6	50	70-75-60
2	Egat tubini	0,20			
3	zichlash	0,25			

*Eslatma:* Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-60 % hudud uchun Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti olimlar tomonidan ilmiy tavsiyalarda keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilindi.


Yuqorida keltirib o'tilgan tajriba tizimiga asosan, dala tadqiqotlari: 3 ta tajriba dalasida; 3 ta variantda hamda 3 ta qaytarilishda olib borildi. Variantlar maydoni quyidagicha bo'ldi: 8 ta egat  $\times 0,6 \text{ m} \times 50 \text{ m} = 240 \text{ m}^2$ . Bitta qaytarilishlar maydoni  $240 \times 3 = 960 \text{ m}^2$ . Bitta tajriba maydoni  $960 \times 3 = 2880 \text{ m}^2$  yoki 0,288 ga, umumiy tajribalar maydoni  $2880 \times 3 = 8640 \text{ m}^2$  yoki 0,864 ga (1-rasm).

Dala tadqiqotlarini olib borishda ma'dan o'g'itlar me'yor Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti olimlar tomonidan berilgan tavsiyaga asosan qabul qilindi, ya'ni: har gektariga  $N_{200}$ ,  $P_{140}$  va  $K_{100}$  kg/ga dan berildi.

Sug'orish oldi egat olishda ikki xil usuldan, an'anaviy hamda egat tubini zichlash qurilmasi (organ) dan foydalanildi va sug'orishda tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-60 % ga kelganda sug'orildi.

G'o'zaning ilmiy asoslangan sug'orish texnikasi elementlarini takomillashtirish bo'yicha tajriba ishlaridagi kuzatuv, tahlil hamda hisob-kitoblar PSUYEAITI da hamda ISMITI va "TIQXMMI" MTU da qabul qilingan uslubiy qo'llanmalarga asosan olib borildi. Tajriba dalalarida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar dala sharoitidan kelib chiqqib, hamda Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti olimlar tomonidan berilgan

ilmiy tavsiyalarga asoslangan holda dehqonchilik tizimi asosida belgilandi va amalga oshirildi.



**1-rasm. Tajriba dalalarining joylashish sxemasi**

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot natijalari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida g‘o‘zani sug‘orish oldi tuproq namligining o‘zgarishi, g‘o‘zani sug‘orish tartibi, egat tubini zichlash qurilmasining sug‘orish texnikasi elementlariga bog‘liqligi, g‘o‘zani sug‘orishda oqova suv bilan yuvilib ketgan ozuqa elementlari, g‘o‘zaning o‘shish, rivojlanishi va hosildorligi, sug‘orish texnologiyasining g‘o‘za hosildorligiga ta’siri, paxta tolasining texnologik sifat ko‘rsatkichlari, tajriba natijalariga matematik ishlov berish, tajriba dalalarining suv iste’mollari, g‘o‘zani sug‘orish tartibi, shuningdek sug‘orish texnikasi elementlari ko‘rsatkichlarining iqtisodiy samaradorligining aniqlanganligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dala tajribasini olib borishda g‘o‘zani sug‘orish jarayonida, ayniqsa relyefi notekis bo‘lgan maydonlarda tuproqni yuvilish jarayonlari kuzatildi.

Sug‘orish texnikasi elementlarini hisobga olmasdan noto‘g‘ri sug‘orish natijasida tuproqning ustki eng unumdor, haydov qatlami yuvilib, tuproqlardagi gumus, azot, fosfor, kaliy va boshqa makro va mikro elementlar, shuningdek, ekinga berilgan mineral o‘g‘itlar yuvilib ketishi natijasida g‘o‘zaning hosiliga hamda sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shunga ko‘ra 1-tajriba dalasining an’anaviy usulda egat olinib gektariga 3911,9 m<sup>3</sup> bilan sug‘orilgan (5 marta) da 20,1 tonna tuproq yuvilganligi kuzatildi. Egat tubini zichlash qurilmasidan foydalanib egat tubi o‘zgaruvchan zichlangan

2 va 3-variantlarga, mavsum davomida 3720, 3891 m<sup>3</sup>/ga me’yorda suv berilgan hamda 13,6; 14,9 t/ga tuproq yuvilgan. Natijada 2-variantda 6,5 t/ga hamda 3-variantda 5,2 t/ga kam tuproq yuvilganligi aniqlangan.

2-tajribada nazorat varianti 5 marta sug'orilib, 4344,4 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 29,4 t/ga tuproq yuvilgan bo'lsa, egat tubini zichlash qurilmasidan foydalanib, egat tubi o'zgaruvchan zichlangan 2- va 3-variantlarga mavsum davomida 4262,6; 4273,2 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 24,9; 25,4 t/ga tuproq yuvilgan. Taqqosiy natijalarga ko'ra 2-variantda 4,5 t/ga hamda 3-variantda 4,0 t/ga kam tuproq yuvilganligi aniqlangan.

3-tajriba dalasining, nazorat (an'anaviy usulda egat olinib) varianti 5 marta sug'orilganda 3794,7 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 18,7 t/ga tuproq yuvilgan bo'lsa, egat tubini zichlash qurilmasidan foydalangan 2- va 3-variantlar, 5 marta sug'orilganda: 3462,7; 3705,3 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, 14,1; 16,2 t/ga tuproq yuvilgan. Natijada 2-variantda 4,6 t/ga hamda 3-variantda 2,5 t/ga kam tuproq yuvilganligi aniqlangan.

Tajriba tizimida belgilangan variantlarga asosan egatning uzunligi bo'yicha namlanishi dala sharoitida aniqlandi. Shunga asosan 1-tajriba dalasidan olingan natijalar tahlil qilinganda, 1-variantda egat uzunligi bo'yicha namlanishi koeffitsienti 0,60; 2-variantda 0,81; 3-variantda 0,79 bo'ldi. Variantlar bo'yicha solishtiriladigan bo'lsa 2-variantda 1-variant (nazorat)ga nisbatan 0,21; 3-variantda nazoratga nisbatan 0,19 ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Shunga mos ravishda namlanish koeffitsienti 2-tajriba dalasida: 0,58; 0,78; 0,76 bo'ldi. Solishtirish natijasiga ko'ra: 0,20; 0,18 ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. 3-tajriba dalasi bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi: 0,64; 0,83 va 0,80. Variantlarni solishtirish bo'yicha namlanish koeffitsient 0,19; 0,16 ga yuqori bo'ldi (2-rasm).

Shunga asosan suvni egat oxiriga etib borishi vaqtining maqbullashtirilishi, hisobiy qatlarni egat uzunligi bo'yicha bir xilda namlatish hamda tuproqni yuvilish jarayonini kamaytirishga erishildi.


Dala sharoitida olib borilgan sug'orish texnologiyasining o'rtacha ko'p yillik tajriba dalasidagi g'oz'a hosili, 1-tajriba dalasining 1-varianti ya'ni an'anaviy usulda g'oz'a parvarishlanganda jami hosil 28,4 s/ga, sug'orish oldi egat tubini zichlash qurilmasi orqali egat tubi zichlanib sug'orilgan 2- va 3-variantlarda gektar hisobida 33,7; 31,1 sentner hosil etishtirildi. Qo'shimcha 5,3; 2,7 s/ga paxta hosili olindi.

